

ONA TILI MASHG‘ULOTLARIDA “BLOOM TAKSONOMIYASI“ DAN FOYDALANISH

Komilova Lola Nasillovna
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta’limida o’qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish metodikasini tadqiq qilishning dolzarbligi hamda Blum taksonomiyasi asosida olmosh so‘z turkumi mavzusini o’qitishda foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyalari, zamonaviy ta’lim, Blum taksonomiyasi, bilish, tushunish, qo‘llash, analiz, sintez, baholash.

Ta’lim - bu o‘quvchini o‘qitish yoki ma’lum bir mavzuni o‘rganish jarayonidir. Maqsad - bu odamlarning rivojlanishi, bilimlari, ta’sirchanligi, axloqiy va ijtimoiy imkoniyatlarini yaxshilash. Bizning jamiyatimizda ta’lim bir-biridan bilimlarni uzatish va biz o‘zimiz yashaydigan muhitga moslashishimiz va rivojlanishimiz uchun juda muhimdir. Shunday qilib odamlar jamiyatni oldinga siljitadigan va turg‘un bo‘lmagan bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Shunday ekan ona tili dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda biz mavzudan kelib chiqib turli metodlardan foydalanamiz. Bugungi kunda Respublika ijtimoiy hayotiga keng ko‘lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni tezkor sur‘atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’limning maqsadi faqat bilim berish emas, qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish. Darhaqiqat, kam vaqt sarflab, sifatli natijaga erishishni talab etayotgan hozirgi tezkor zamon ta’limdan faqatgina bilimli emas, balki bilimni hayotda qo‘llay oladigan ijodkor, tashabbuskor, moslashuvchan avlodni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida bir qancha muhim vazifalarni kun tartibiga chiqarmoqda. Shuning uchun ham ta’lim turlari: maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda oliy ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik qaytadan tahliliy o‘rganib chiqilib, ta’lim turlarining ona tili ta’limidan maqsadi konkretlashtirilib, aniqlashtirilib olinmoqda [Mengliyev, 2017:8-9]. Jahonda til o‘qitish metodikasida XX asrning o‘rtalaridan boshlab kishilar o‘rtasidagi muloqot quroli bo‘lgan tilni o‘qitish va uni baholashga alohida e’tibor berila boshlangan. 70-yillarga kelib tilni o‘rganish va egallash darajasini baholash bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Buyuk Britaniyada IELTS, Amerika Qo‘shma Shtatlarida TOEFL va Yevropada CEFR kabi test tizimlari ingliz tili va boshqa roman-german tillarini ikkinchi til sifatida egallash darajasini baholashga

xizmat qilayotgan bo'lsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida SAT, Buyuk Britaniyada GCSE, A-level, Rossiya Federatsiyasida YeGE kabi baholash tizimlari ona tilidan nutqiy malakalarni egallash darajasini baholab kelmoqda[Abdurayimov,2022:13].

Ta'lim-tarbiya jarayoniga, xususan, til ta'limiga ham pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar hamda maktablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan o'qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish lozim. Jumladan:

- yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniqlash va uning nazariy asoslarini yaratish;
- uning prinsiplarini ishlab chiqish;
- pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashning samarali yo'llarini tanlash va hokazo.

Ta'kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modelini yaratish taqozo qilinadi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "o'quv-tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta'minlash" uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlarini tanlash. Ta'lim texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqida guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida ta'lim oluvchilarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim. Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish kabi usullar mustaqil o'rganilgan, tahlil va muhokama qilingan ma'lumotlarning 90 foizini xotirada saqlanishi uchun imkon beradi[Usmonboyeva,2005:30].

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lim oluvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsat-kichining eng yuqori darajasi 30 foizni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa ularning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi.

Har qanday ta'limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir. Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, darsliklar, dars berish amaliyotidagi o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv (bilishga oid) sohaga tegishli bo'lishi aniqlangan. Xuddi shu maqsadda jahon pedagogikasida fundamental

izlanishlar natijasida o‘quv maqsadlari taksonomiyasi vujudga kelgan. U o‘quv maqsadlarini belgilashning eng ilg‘or usuli bo‘lib e’tirof etilgan.

Biz yuqorida keltirilgan muammolardan kelib chiqib ushbu maqolada ona tili darslarini o‘quv maqsadlari taksonomiyasi (B.Bloom taksonomiyasi)dan foydalanib o‘qitishning bir qancha metod va usullarini tavsiya etishni maqsad qilib qo‘ydik. Kognitiv sohaning eng quyi bosqichi “bilim” deb ataladi[Bloom,1971:232]. Bu kimningdir faktlar va prinsiplarni eslashi demakdir. Bu bosqichda shaxs o‘zlashtirgan bilimlarini eslashi, ularni nomlashi va aytib berishi mumkin.Ma’lumki, o‘quv maqsadlarini mashg‘ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta’lim samaradorligini aniqlash va kamchiliklarga barham berilishiga zamin tayyorlaydi. Har bir fan o‘qituvchisi o‘rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv maqsadlarini aniqlashi va shu asosda mashg‘ulotlarni tashkil etishi lozim.

Endi esa ona tili darslarida olmosh so‘z turkumiga oid mavzularni o‘qitishda o‘quv maqsadlarini B.Bloom takonomiyasidan foydalanib aniqlash yuzasidan namuna berib o‘tamiz. Buning uchun ko‘p javobli va nostandart testlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1. “Bilish” ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshirig‘i:

Berilgan olmoshlarning ma’no turlarini aniqlang va jadvalga joylashtiring.

1)kimdir, 2) har bir, 3)hech qaysi,4)o‘z-o‘zidan,5)men, 6) o‘sha, 7)qachon, 8)ana 9)birov, 10)hamma, 11)jami, 12)biz-siz, 13)hech kim, 14)necha 15) o‘zim

Kishilik olmoshi	Ko‘rsatish olmoshi	O‘zlik olmoshi	So‘roq olmoshi	Gumon olmoshi	Belgilash olmoshi	Bo‘lishsizlik olmoshi
5,12	6,8	4,15	7,14	1,9	2,10,11	3,13

O‘quvchi berilgan bunday nostandart test topshirig‘i bilan ishlash jarayonida mavzu yuzasidan dalillar va atamalrni , turkumlashni, umumiy tushuncha va nazariyalarni bilishi namoyon bo‘ladi.

2.”Tushunish”ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari:

Olmoshning tuzilishiga ko‘ra turini ta’riflari bilan juftlang.

1.	Sodda olmosh	A	Bunday tuzilishda ikkita asosning qo‘shilishidan yangi olmosh hosil qilinadi. Ko‘pincha qismlari ajratib yoziladi. (birov
----	--------------	---	---

			gumon olmoshi bundan mustasno)
2.	Qo'shma olmosh	B	Bu tuzilish shakli faqat bir so'zdan, ya'ni asosdan iborat bo'ladi.
3.	Juft olmosh	C	Bu tuzilishda bir so'zning aynan takrori yoki ikkinchi qismining tovush o'zgarishidan hosil bo'ladi va qismlari chiziqcha yordamida yoziladi.
4.	Takroriy olmosh	D	Bu tuzilishda ikki xil olmosh bir-birini taqazo qilib qismlari chiziqcha bilan yoziladi.
Javob:	1-B	2-A	3-D 4-C

Keltirilgan ko'p jadvalli test bilan ishlash natijasida o'quvchilar mavzuni izohlash, tushuntirish, olingan natijalarni yoyish va tatbiq etish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

3."Bilimlarni amalda qo'llash" o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari:

Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini ajrating va mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga kiriting.

- 1) *men-sen*, 2) *o'zi*, 3) *ana-mana*, 4) *barcha-barcha*, 5) *uncha-muncha*, 6) *butun*, 7) *mana shu*, 8) *bir kishi*

Sodda	2,6
Qo'shma	7,8
Juft	1,3
Takroriy	4,5

Yuqoridagi nostandart testga javob topish natijasida o'quvchi mavzu yuzasidan o'rgangan tushunchalar hamda qoidalarini boshqa vaziyat va topshiriqlarni hal qilishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. "Tahlil"ga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshirig'i:

Quyidagi fikrlarning qaysilari to'g'ri?

A. Olmoshlar ma'no turiga ko'ra 7 ga b'linadi.

B. Olmosh so'z turkumi tuzilishiga ko'ra 2 ga bo'linadi.

C. Har kim, hamma, barcha olmoshlari ma'no turiga ko'ra kishilik olmoshi hisoblanadi.

D. Olmosh so'z turkumi tuzilishiga ko'ra 4 ga bo'linadi.

Javob: ___A va D_____

Yuqoridagi topshiriqni bajarish natijasida o'quvchi mavzuni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni tuzish, qismlarni tahlil qilish, yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillari bilan tanishadi.

5. "Sintezlash" o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholash da foydalaniladigan nostandart test topshirig'i.

Quyida berilgan (so'roq olmoshlari va bir so'zi yordamida hosil qilinadigan) qo'shma olmoshlarga diqqat qilib ma'no turlari jadvaliga joylashtiring.

1)har bir, 2)hech bir, 3) bir kishi,4)nimadir, 5)har qanday, 6) hech qaysi, 7) allakim, 8)har kim, 9) hech qanday

Javobi:

Gumon olmoshi	Belgilash olmoshi	Bo'shsizlik olmoshi
3,4,7	1,5,8	2,6,9

Sintezlashga oid yuqoridagiga o'xshash topshiriqni bajarish asosida o'quvchi berilganlarga asoslanib yaxlit qiyofa yaratish, materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholash, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda tajriba o'tkazish rejasini tuzish, u yoki bu muammoni hal etish rejasini tuzishda o'zaro bog'liqlikda bo'lgan hodisalarning umumiylikini, bog'liqlik omilini aniqlash ko'nikmasiga ega bo'ladi.

6. "Xulosa yasash" ga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshirig'i:

1. Quyidagi ko'rsatish olmoshlarini tuzilish jihatdan jadvalga moslab kiriting.

1.	Sodda	A	Shu-shu, o'sha-o'sha
2.	Qo'shma	B	Ana-mana, u-bu, ul-bul
3.	Juft	C	Ana shu, mana bu
4.	Takroriy	D	Ana, u, shu

Javob:

1.D	2.C	3.B	4.A
-----	-----	-----	-----

Baholashga oid, ya'ni maqsadga muvofiq holda qo'llanilgan material yoki uslublarni baholash uchun tuzilgan testlar bilan ishlash asnosida o'quvchi o'z bilimlarini ichki va tashqi mezonlar asosida baholashni o'rganadi.

Xulosa shuki, ta'lim-tarbiya jarayonida Bloom taksonomiyasiga binoan o'quv maqsadlarining aniqlanishi, o'quvchilarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandart test topshiriqlaridan foydalanish, nazorat-ning haqqoniyligi, keng qamrovliligini ta'minlaydi. Barcha fanlar qatori ona tili darslarida ham ta'lim oluvchilarga ma'lumot berishda ta'limning ilg'or tajribalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va turli interfaol metodlar asosida ta'lim berish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Qolaversa, zamonaviy ta'lim berishda o'qituvchi kasb mahoratining turli qirralarini namoyon etishi ham bu davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –Toshkent: 1997.
2. Abduraimov Sh.S. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari. (PhD)Dis.T.: -2022
3. Bloom B.S. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. N - Y., McGraw-Hill, 1971. – s-232.
4. Ismoilova I. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. -Toshkent: 2002.
5. Mengliev B. Ona tili ta'limi: Davr talabi va ijtimoiy zarurat. "Ma'rifat" gazetasi, 2017 yil, 22-fevral soni, 8-9-b.
6. Mengliev B. O'zbek tilidan universal qo'llanma. –Toshkent: 2014.
7. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 2007.
8. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –Toshkent: "Fan", 2005.